

**ÓZBEKISTON RESPUBLIKASI YUQORI VA ÓRTA MAHSUS  
TALIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tabiyatshunoslik fakulteti**

**Umumiy biologiya va fiziologiya kafedrası  
5140100-Biologiya yónalishining**

**IV<sup>B</sup>-kurs talabasi Abdullayeva Adolatning**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: « SULTON UVAYS FLORASI »**

«Himoyaga yuborildi»

\_\_\_\_\_

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2019-y.

İlimiy rahbari \_\_\_\_\_ dots. Serekeeva G.A.

Kafedera mudiri: \_\_\_\_\_ prof. Matchanov A.T.

Nukus – 2019

## MUNDARIJA

KIRISH.....		3
1-BOB.	SULTON UVAYS TOG'NING FIZIK–GEOGRAFIK TAVSIFI.....	5
	1.1. Geografik órni.....	5
	1.2. Geologiyasi va geomorfologiyasi.....	5
	1.3. Hidrologiyasi.....	5
	1.4. Iqlimi.....	6
	1.5. Tuprog'i.....	7
2-BOB.	BOTANIK TADQIQOTLARNING QISQACHA TARIXI.....	10
3-BOB.	TADQIQOTNING MANBALARI VA METODLARI.....	14
4-BOB.	SULTON UVAYS TOG' FLORASI TAHLILI.....	16
	4.1. Taksonomik tahlili.....	16
	4.2. Hayotiy shakllari bóyicha tahlili.....	20
	4.3. Ekologik tahlili.....	25
	4.4. Endem va kamyob turlar.....	27
	4.5. Sulton Uvay stog' florasining solishtirma tahlili.....	31
5-BOB.	SULTON UVAYS TOG' FLORASIDAGI ÓSIMLIK GURUHLARINING XÓJALIKDAGI AHAMIYATI.....	35
XULOSA.....		42
AMALIY TAVSIYALAR.....		43
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÓYXATI.....		46
HAYOT FAOLIYATI HAVFSIZLIGI.....		49
ILOVALAR.....		53

## KIRISH

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “2017-2021 yillar harakatlar strategiyasi” nomli asarida kóplab savollarga atroflicha javob berilgan. Xalqaro hamjamiyat insonning nafaqat yashash huquqi, balki tólaqonli va sog’lom turmush kechirish uchun zarur mótradil atrof sharoitlari ham bólgan huquqlarning muqaddas va daxlsizligi allaqachonlari etirof etgan.

**Mavzuning dolzarbligi.** Sulton Uvaysto ğ qoldiq to ğ i bólib, uning noyob florasida hozirgi kungacha tóliq órganilmagan. Qizilqum qoldiq to ğ larining kelib chiqishiga kóra to ğ florasida bilan bevosita bo ğ liq bólgan turlarni inobatga olgan holda ushbu hudud to ğ li Órta Osiyo (Af ğ on-Turkiston) provintsiyasiga kiritilishi kerak degan fikrni ilgari suradi (Kamelin).

Yaqinda bu qarashlarga qarama-qarshi fikrlar ham paydo bóldi Xasanov va boshqalar Sulton Uvays, Bukanto ğ va Kuljukto ğ qoldiq to ğ lari Turon chól botanik-geografik provintsiyasiga kiritildi. Ilmiy izlanishlar davomida tuzilgan tóliq floristik róyxat va uning taksonomik va biomorfologik tahlillari natijasi fitotsenotik tavsiflar bilan birga tadqiqot olib borilgan huddudni chól florasiga mansubligini aniqlashga imkon berdi.

**Muammoning órganilganlik darajasi.** M.G. Popov Órta Osiyoda, jumladan, Qizilqum hududida joylashgan qoldiq to ğ lar florasiga katta ahamiyat bergan. U Sulton Uvays hududning ósimliklarini órganish maqsadida ilmiy safarlar tashkil qiladi, qimmatli gerbariy materiallarini tóplaydi. Bu ekspeditsiyalarning natijalari 1915 yilda “Botaniko-geograficheskiy ocherk gor Sultanuizdag” nomli maqolada elon qilinadi. Fanda mashhur bólgan qator botanik olimlar turli vaqtlarda ilmiy izlanishlar olib borgan. R.A. Abduraxmanovning izlanishlari Sulton Uvays va Aristanto ğ ósimliklar qoplami va florasiga ba ğ ishlangan.

B.Sh. Sherbaevning tadqiqotlari katta ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Jumladan, (1978) yildagi B.Sh. Sherbaev Sulton Uvaysto ğ hududida olib borgan

kóp yillik izlanishlarini yakunlab, bu qoldiq to'g' florasi uchun 53 oila, 126 turkumga mansub 444 turlarning róyxatini keltirgan.

**Tadqiqot maqsadi.** Ishning maqsadi dala tadqiqotlari natijasida, shuningdek, gerbariy materiallarni va adabiyotlardagi malumotlarni tahlil qilish asosida Sulton Uvaysto'g' florasining zamonaviy konspektini tuzishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

- Sulton Uvaysto'g' florasining zamonaviy tarkibini aniqlash;
- florani kompleks tahlil qilish;
- Sulton Uvaysto'g' qoldiq to'g' li florasidagi kamyob elementlarning zamonaviy holatini órganish;

**Tadqiqot obekti va predmeti.** Tadqiqot obekti – Sulton Uvaysto'g' florasi.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqot materiallari (gerbariyalar) ni tóplashda dala-marshrut va klassik geografik-morfologik metodlardan foydalanildi.

**Ílmiy yangiligi** Sulton Uvaysto'g' qoldiq to'g' li florasining zamonaviy holati órganildi. *Allium rinae* F.O.Khass., Shomuradov et Tojibaev “Ózbekiston Respublikasi Qizil kitobi” ning keyingi nashriga kiritilishi mójallangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ósimliklarning 48 oilasi, 221 turkumiga mansub 423 turning tóliq zamonaviy konspekti tuzildi.

**Ishining tuzilishi va hajmi.** Malakaviy ishning xajmi 58 bet bólib, kirish, 5 bob, xulosalar va amaliy tavsiyalardan iborat. Malakaviy ishning 6 ta jadval, 2-diagramma, 14 ta rangli fotosuratlar va ilovalar berilgan. Foydalanilgan adabiyotlar róyxati 27 ta dan iborat.

## **1-BOB. SULTON UVAYSNĠNG FĠZIK-GEOGRAFIK TAVSIFI**

**1.1. Geografik órni.** Sulton Uvaysto ġ dengiz sathidan eng baland nuqtasi Qora-Shengel chóqqisi bólib, 485 m ni tashkil etadi. Hududning umumiy er maydoni 700 km<sup>2</sup>. ġ arbdan sharqqa tomon uzunligi 40 km, eni 15-16 km ga chózilgan.

**1.2. Geologiyasi va geomorfologiyasi.** Qizilqum hududi murakkab geomorfologik tuzilishga ega.

Tadqiqotchilarning fikrlariga kóra, Qizilqumda joylashgan Sulton Uvaysto ġ ning geologik tuzilishida paleozoy, mezozoy, kaynazoy eralarining yotqiziqlari uchraydi.

Sulton Uvaysto ġ paleozoy erasidan bizgacha etib kelgan qoldiq to ġ larning biri hisoblanadi. Uchlamchi davrda Qizilqum hududi Tetis dengizining suvi bilan qoplangan. Kaynazoy davrining oxirida Tetis dengizi chekinib, Qizilqum hududi quruqlikka aylanadi [3].

Sulton Uvaysto ġ ni hosil qiluvchi to ġ jinslari qadimgi paleozoy erasida vujudga kelgan dolomitlar, kvartsitlar, dolomitlashgan ohaktoshlar, konglomeratlar turli kattalikdagi yashilsimon kul rangli qumtoshlardan iborat. Shuningdek, silur davri bilan bo ġ liq bólgan orgilitli, sillitli qumtoshlar, yupqa qatlam shaklidagi ohaktoshlar, chi ġ anoqlar, gravelitlar, alevritlar, dolomitlar kóp tarqalgan.

Mezozoy erasida paydo bólgan yotqiziqlarning geografik tarqalishi paleozoy erasidagi yotqiziqlarga nisbatan ancha chegaralangan. Yura davrining yotqiziqlari asosan qatlamlangan alevrolit, argillitsimon gil va qumtoshlardan tashkil topgan.

Íqlim sharoitining keskin kontinentalligi tufayli hosil bólgan turli sha ġ al, cha ġ ir toshlardan iborat bólgan yotqiziqlar bizgacha etib kelgan.

**1.3. Hidrologiyasi.** Qizilqumda er osti suvlari ancha chuqurda joylashgan. Adabiyotdagi malumotlarga kóra er osti suvlari kópincha er sathidan 30-60m chuqurlikda joylashadi. To ġ oldi prolyuvial tekisliklarining er osti suvlari

paleozoy, kaynozoy, uchlamchi davr qoldiqlari hamda tórtlamchi davr qoldiqlari ona jinslari bilan aralashgan. Ammo suvning tami taxir-shór bólib, ichimlik suvi sifatida foydalanishga yaroqsiz.

Qizilqumda yoǵ ingarchilik juda kam bóladí. Yozi nihoyatda qurǵ oqchil bólib, kuzda, aniqroǵ i, oktyabr va noyabr oylarida yoǵ ingarchilik davri boshlanadi. Eng kóp yoǵ in 30 % ni bahor faslida yani mart-aprel oylarida tushadi. Yomǵ irdan sóng toǵ yonbaǵ irlaridagi soylarda kólmak suvlarining yiǵ ilishi kuzatiladi. Sulton Uvaystoǵ da yoǵ in kam bólganligi tufayli, tuproqning faqat yuza qatlami namlanadi.

Bahorda ósimliklarning vegetatsiya davri qisqa vaqt davom etadi. May oyining oxirlariga borib, tuproqdagi namlik miqdori kamayib ketadi. Er osti suvlari er sathiga yaqin joylashgan hududlarda suvning minerallanish darajasi 0,3 dan 1,02 g/l ga etadi.

**1.4. Iqlimi.** Tadqiqot olib borilgan hududning iqlimi keskin kontinental hisoblanadi. Qishi qattiq sovuq va quruq, yozi esa juda issiq. Chól hududida ósimlik turlarining xilma-xil bólishi, ósish va rivojlanishida iqlim omili etakchi rol óynaydi. Keyingi yillardagi ilmiy manbalarda va meteorologik stantsiyaning 3 yillik malumotlariga kóra, qish mavsumining kunlik órtacha havo harorati - 4°S ni, bahorning dastlabki oylarida esa bu kórsatkich + 5° S ni tashkil etdi. Bahorning oxiri va yozning boshlarida havoning órtacha harorati + 23°S ga teng bóldi. Absolyut yuqori harorat + 46°S, + 48°S gacha etdi. Kuzda sentyabr-oktyabr oylarida havoning órtacha harorati + 14,0°S ga teng bóldi. Tadqiqot olib borilgan hududda odatda qish noyabrning uchinchi ón kunligidan boshlanadi. Eng sovuq oy yanvar hisoblanib, havo harorati - 13°S gacha pasaydi. Qor qoplami yupqa bólib, uzoq vaqt saqlanib turmaydi.

Sulton Uvaystoǵ hududida yoǵ ingarchilik fasllar bóylab notekis taqsimlangan. Boshqa fasllardan farqli ólaroq, yoz mavsumida yoǵ ingarchilik deyarli kuzatilmaydi. Adabiyotdagi malumotlarga kóra hududning yillik yoǵ in

miqdorining 48% ni bahorga, 30% ni qishga, 19% ni kuzga va 3% ni yoz fasliga to'g'ri keladi. Ósimlikning ósishi va rivojlanishida qishgi va bahorgi yo'g'inlar katta ahamiyatga ega.

Ósimliklarning ósish va rivojlanishida shamol asosiy omillardan biri hisoblanadi. Qishda yanvar oyida shamolning tezligi kuchayadi. Yoz oylari bu hududda af'g'on shamoli chang, qum-tózonli bólib, bazan haftalab davom etadi. Bu esa Sulton Uvaysto'g' ósimliklar qoplamiga ózining salbiy tasirini kórsatmay qolmaydi.

**1.5. Tuproqlari.** Qizilqumning tuproq qatlamlari bir necha tiplardan tashkil topgan. Sulton Uvaysto'g'ning tuproqlari asosan paleogen, neogen davrlarining qumtoshli, gil, ohaktoshli va qadimiy prolyuvial, ellyuvial yotqiziqlaridan iborat.

Qizilqumning tuproq qoplami bir qator tadqiqotchilar tomonidan órganilgan. N.V. Kimberg, E.V. Lobova, N.A. Butskov va Ya.M. Nosirov ular Qizilqum chólini tabiiy-geografik rayonlashtirib, uning tuproq qoplamiga tavsif beradilar. Qizilqumning tuproq qatlamlarini N.A. Butskov va Ya.M. Nosirov 7 tipga ajratadilar: sur tusli qón'g'ir; qumli va qumoqli; taqirli; taqir; yaylov; yaylov-taqirli; shórxok tuproqlar.

Tadqiqot olib borilgan hududning tuproqlari asosan sur tusli qón'g'ir tuproq xiliga kiradi. Sulton Uvaysto'g'ning to'g'oldi prolyuvial tekisliklarida sur tusli qón'g'ir va qumtoshli tuproqlar uchraydi. Sur qón'g'ir tuproqlar tarkibi organik moddalarning kamligi bilan farqlanadi. Tuproqning yuza qismida suvda tez eriydigan tuzlar kóp uchraydi. Shu sababdan sur-qón'g'ir tuproqlar bazan shórxok tuproqlarga aylanadi. Qish va bahorgi yo'g'inlar natijasida tuproqning ustki qoplami namlanadi. Bu esa efemer va efemeroid ósimliklarning ósishi uchun qulay tabiiy sharoit yaratadi. Yozda yo'g'ingarchilik kam bólib, may oylarining oxirlariga borib, tuproqdagi namlik miqdori kamayib ketadi. Sulton Uvaysto'g'ning

to'g' yonba'g'irlari uchlamchi davrdagi emirilishlar natijasida hosil bo'lgan ohaktoshlar, qumtoshlar, chi'g'anoqlar, mayda toshli tuproqlardan tashkil topgan.

Sulton Uvaysto'g' to'g' oldi tekisliklari sur qon'g'ir va qumloq-sha'g'alli tuproq qoplamidan iborat. To'g'ning g'arbiy qismi tuproq qoplami qumtosh va ohaktoshli va paleozoy davrining qoldiqlaridan tashkil topgan. To'g' yonba'g'irlari sur qon'g'ir tuproq va to'q kul rangli tuproqlar hamda katta toshlardan tuzilgan. Sharqiy tomonga cho'zilgan Bozdan massivida boz tuproqlar uchraydi. Hududning shimoliy qismi to'g' yonba'g'irlarida tuproq qoplami sur qon'g'ir va mayda toshli tuproqlardan tashkil topgan.





## 2-BOB. BOTANİK TADQIQOTLARNING QISQACHA TARIXI

Qizilqum ósimliklar qoplami va florasining óziga xos qirralarini ochib berishda bir qator botanik olimlar, jumladan, M.G. Popov, S. Í. Ílin, O.N. Bondarenko, R. Abduraxmanov, B.Sh. Sherbaev S.E. Erejepov, O.N. Korovina va boshqalar kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari katta ahamiyatga ega.

Biz tadqiqot ishlarimizda boshqa hududlarning floralarini adabiyotlar bilan sharhlaganimizda, quyidagi hududlarga bóldik: Nurota oldi qoldiq to ğ lar, Qizilqumning qaldiq to ğ ları [4,5,8,10,11,13,14,15,16,20,21,22,23,24,25].

S.Í. Ílin Órta Osiyo chól ósimliklarining genezisi borasidagi katta ilmiy ishini elon qiladi. Keltirilgan nazariy xulosalarni olishda Qizilqum va undagi qoldiq to ğ lar florasini órganish va uni tahlil qilish katta ahamiyatga ega bólgan.

Mashhur botanik olim M.G. Popov Órta Osiyoda, jumladan, Qizilqum hududida joylashgan qoldiq to ğ lar florasiga katta ahamiyat bergan. U Sul-ton Uvays hududning ósimliklarini órganish maqsadida ilmiy safarlar tashkil qiladi, qimmatli gerbariy materiallarini tóplaydi. Bu ekspeditsiyalarning natijalari 1915 yilda “Botaniko-geograficheskiy ocherk gor Sultanuizdag” nomli maqolada elon qilinadi va ushbu hudud ósimliklar qoplami-ning asosiy xususiyatlari, bu erda tarqalgan turlarning asosiy ekotoplar (qumlar, cha ğ ir toshlar, qoyatoshlar) bóyicha tarqalishi va uchrash darajasini aks ettirgan róyxatni keltiradi.

R.A. Abduraxmanovning izlanishlari Sul-ton Uvays va Aristanto ğ ósimliklar qoplami va florasiga ba ğ ishlangan. Uning ma-lumotlariga kóra, Sul-ton Uvaysto ğ florasida 32 oila, 132 turkumga mansub 249 tur uchraydi. Aristanto ğ florasida uchun esa 35 oila, 158 turkumga mansub bólgan 247 turlarning mavjudligini keltirgan. Tadqiqotchi ushbu hudud uchun endem bólgan turlar tarkibiga alohida etibor qaratadi va endemlar róyxatida Aristanto ğ florasida uchun *Paraeremostachys transoxana* (Bunge) Adylov, Kamelin et Makhm., *Cousinia hamadae* Juss., *Cousinia sogdiana* Bornm., Sul-ton Uvaysto ğ uchun *Cousinia*

*dolichoclada* Juz. *Cousinia hamadae* Juss. turlar haqida malumotlar keltiradi. Qizilqumning qoldiq to'g'larida uchraydigan subendem turlardan *Astragalus remanens* Nabiev, *Lagochilus gypsaceus* Vved [4,5].

Qizilqumning Qoraqalpo'g'iston Respublikasi hududidagi qismini, shu jumladan qoldiq to'g'larining florasini to'g'risidagi malumotlarning kengayishida O.N. Bondarenkoning tadqiqotlari ham alohida órin tutadi .

U Qoraqalpo'g'istonning yuksak ósimliklari aniqlagichini chop ettiradi va unda 87 oila 413 turkumga mansub b'olgan 874 turning róyxatini keltiradi. Keyinchalik ushbu aniqlagich asosida O.N. Korovina va boshqalarning hammuallifligida "Íllyustrirovanniy opredelitel visshix rasteniy Karakalpakii i Xorezma" nomli ikki jildli monografiya nashrdan chiqadi. Aniqlagichning birinchi jildida 51 oila, 228 turkum, 547 tur, ikkinchisida esa 45 oila, 215 turkum, 432 turlarni keltiradi. Ular orasida qoldiq to'g'larda tarqalgan turlar haqida ham qimmatli malumotlarni keltirgan. Qizilqum va unda alohida órin tutgan qoldiq to'g'larning florasini va ósimliklar qoplamini órganishda Qoraqalpo'g'istonlik botaniklarning xizmatlari ham katta b'olgan [10]. Ular tomonidan olib borilgan tadqiqotlar orasida B.Sh. Sherbaevning tadqiqotlari katta ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Jumladan, 1978 yildagi B.Sh. Sherbaev Sulton Uvaysto'g' hududida olib borgan k'op yillik izlanishlarini yakunlab, bu qoldiq to'g' florasini uchun 53 oila, 126 turkumga mansub 444 turlarning róyxatini keltirgan. Bu floraning endem turlari qatorida *Lappula parvula* Nabiev et Zakirov, *Jurinea multiloba* Ijgin, *Scorzonera bungei* Krasch. et Lipsch. kabilarni keltirgan. Shuningdek, u Qoraqalpo'g'iston hududida joylashgan Kuskanato'g', Belto'g' qoldiq to'g'lari florasining qiyosiy tahlilini amalga oshirgan [21,22,23,24,25].

S.E. Erejepov Qoraqalpo'g'iston florasida, shuningdek, qoldiq to'g'larda tarqalgan em-xashak ósimliklarning ahamiyati haqidagi qimmatli malumotlarni keltirgan. Uning k'op yillik ilmiy izlanishlari davomida 78 oila, 383 turkumga mansub b'olgan 876 turlarning tarkibi aniqlangan [9]. 1934 yilda Qizilqum

hududining ósimliklarini órganish maqsadida bir qator botanik olimlar ilmiy safarlar tashkil etadilar, qimmatli gerbariy materiallarini tóplaydilar. S.A. Nikitin, K.D. Muravlyanskiy, A.S. Poretskiy kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlaridan kórishimiz mumkin. S.A. Nikitin tomonidan Sultanuvaysto ğ ning ósimliklar qoplamiga oid keng kólamli geobotanik tadqiqot ishlari olib borilgan. İzlanishlar natijasida hududlarning ósimliklar qoplami va ularning tarqalishi haqidagi malumotlar berib ótilgan. K. D. Muravlyanskiy ilmiy ishlarida Sultanuvaysto ğ hududining ósimliklar qoplamida tarqalgan ósimliklarning em-xashaklik xususiyatlari haqidagi malumotlarni keltirgan. A.S. Poretskiy Qizilqumning qoldiq to ğ lari – Sultanuvaysto ğ Bukanto ğ , Tomdito ğ , kabi to ğ larda tarqalgan ósimliklarning biomorfologiyasi va xójalikdagi ahamiyatiga doir juda qimmatli malumotlarni beradi. D.A. Li tomonidan Qizilqumda tarqalgan em-xashakbop ósimliklar haqida batafsil malumotlar keltirilgan. Muallif tomonidan, Sultanuvaysto ğ hududidan katta gerbariy namunalari yi ğ ilgan bólib, ular hozirda ÓzR FA “Botanika” İİChM Markaziy gerbariysida saqlanmoqda.

Sónngi yillar davomida butun Qizilqum hududida olib borilayotgan keng kólamli floristik izlanishlar hozirgacha ótkazilgan tadqiqotlarni umumlashtirish, tegishli xulosalar olish bilan birga, bu floraning genezisi, floraning shakllanishidagi óziga xos jihatlari hamda mavjud abiotik, biotik omillar yi ğ indisi tasirida flora tarkibida róy berayotgan ózgarishlarni qayd etish imkoniyatini bermoqda. Ana shunday ruhdagi tadqiqotlarning natijalari F.O. Xasanov va boshqalarning “Kratkiy ocherk i analiz endemizm flori pustini Kızılqum”, “Gornie elementı vo flore pustini Kızılqum”, ishlarida elon qilinmoqda.

Turli maqsadlarga yónaltirilgan ilmiy tadqiqotlarni bajarish davomida Sulton Uvays hududidan katta miqdordagi gerbariy namunalari yi ğ ilgan. Ularning asosiy qismi TASH, LE, MÓ singari Órta Osiyo va Rossiyaning yirik gerbariylarida saqlanmoqda.

Yuqorida keltirilgan malumotlarning tahlili olib borilgan barcha tadqiqotlarning turli maqsadlar sari yónaltirilganligini kórsatib turibdi. Ularning aksariyat qismi Sulton Uvays ósimliklar qoplaminining tarkibi, tuzilishi va ayrim transformatsion jarayonlarga baǵ ishlangan. Ulardagi barcha malumotlarni umumlashtirish Sulton Uvaysning zamonaviy florasida haqida yaxlit malumotlarni bermaydi. Tabiiy ekosistemalar, ayniqsa, antropogen omillar tasiri keng kólamlarda namoyon bólayotgan va mahalliy biologik xilma-xillik keskin ózgarishlarga uchrayotgan hududlarning turlar tarkibini aniqlash – ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

### **3-BOB. TADQIQOTNING MANBALARI VA METODLARI**

Sulton Uvays florasini órganish maqsadida 2018-2019 yillarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Dala tadqiqot ishlari belgilangan marshrutlar asosida amalga oshirilib, ushbu hududdan 550 dan ortiq gerbariy namunalari yig'ildi. Tadqiqot olib borilgan Sulton Uvays hududining geografiyasini órganishda Qizilqum hududida olib borilgan ilmiy ishlardan foydalanildi.

Taksonomik birliklarni aniqlashda “Oprelitel rasteniy Sredney Azii”, “Flora Uzbekistana”, “Flora Turkmenii”, “Flora Tadjikskoy SSR”, “Flora SSSR, “Oprelitel rasteniy Turkmenistana”, “Oprelitel vısshix rasteniy Karakalpakii”, “İllyustrirovannıy opredelitel vısshix rasteniy Karakalpakii i Xorezma” asarlaridan foydalanildi [10,11,13,14,15,16,20,21,22,23,24,25].

Tadqiqot hududi florasini órganishda ilmiy-amaliy tavsiyalar sifatida qator ishlardan shuningdek, mahalliy florastik tadqiqot ishlaridan ham foydalanildi.

Sulton Uvays florasidagi oilalarning róyxati A.L. Takhtajan ishlab chiqqan zamonaviy tizimdan va Ó.P. Prator, M.M. Nabievlarning “Ózbekiston yuksak ósimliklarining zamonaviy tizimi” nomli metodik tavsiyasidan keng foydalanildi [12].

SultonUvays florasidagi oila turkum va turlarning ilmiy nomlari S.K. Cherepanov bóyicha keltirildi [19].

Kamyob turlarni aniqlashda “Ózbekiston Respublikasining Qizil kitobi” dan foydalanildi. Ósimlik turlarining hayotiy shakllari tarkibini aniqlashda C. Raunkier tasniflaridan, areal tiplarini aniqlashda adabiyot malumotlaridan foydalanildi.

SultonUvays florasining qóshni floralalar bilan óxshashlik darajasi P. Jakkardning óxshashlik koeffitsienti yordamida aniqlandi

$$K_j = \frac{100 * c}{a + b - c}$$

Bu erda  $K_j$  – Jakkardning óxshashlik koeffitsienti;

$s$  – floralarning umumiy turlar soni;

$a$  va  $b$  – solishtirilayotgan floralardagi turlarning umumiy soni.

Ósimlik guruhlarining xójalikdagi ahamiyatini aniqlashda kóp jildli “Rastitelnie resursı” qóllanmasidan foydalanildi. Dorivor ósimliklarning xususiyatlarini Q.H. Hojimatov, K.X. Xoliqov, X.X. Xolmatov shuningdek, bir qator olimlarning ishlaridan ham foydalanildi. M. M. Ílin tasnifi asos qilib olindi [6,18,26].

## 4-BOB. SULTON UVAYS FLORASI TAHLILI

Sulton Uvaysda olib borilgan inventarizatsiya tadqiqotlari natijasida hudud florasidagi ósimliklarning tahlili keltirilmoqda.

**4.1. Taksonomik tahlili.** 2018-2019 yillar davomida olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida Sulton Uvays hududidan kóplab qóshimcha malumotlar tóplandi. Adabiyotlardagi mavjud malumotlar 30 jildli “Opredelitel rasteniy Sredney Azii”, “Opredelitel vısshix rasteniy Karakalpakii”, “İllyustrirovanniy opredelitel vısshix rasteniy Karakalpakii i Xorezma” hamda dala tadqiqotlari davomida yi ğ ilgan gerbariy materiallarini aniqlash va ÓzR FA Markaziy gerbariy fondida saqlanayotgan materiallarni tahlil qilish asosida Sulton Uvaysda florasida 48 oila, 221 turkumga mansub 423 turdan iborat ekanligini takidlash mumkin.

Floraning konspektida ósimlik oilalari A.L. Takhtajan, Ó.P. Prator va M.M. Nabievlarning tasniflari bóyicha joylashtirildi [17,12].

Sulton Uvaysda florasining taksonomik tarkibi Turon provintsiyasining asosiy jihatlarini ózida aks ettiradi. Keltirilgan statistik malumotlardan ravshan bóldiki, Sulton Uvays florasida tarkibidagi asosiy sistematik guruhlar yopiq uru ğ li ósimliklar (*Magnoliophyta*) 418 tur umumiy floraning 98,8% ini egallaydi.

İkki uru ğ pallali ósimliklar (*Magnoliopsida*) 38 oilaga mansub 181 turkum, 356 turdan (84,2%) tashkil topgan, bir uru ğ pallali ósimliklar (*Liliopsida*) esa 8 oila, 38 turkumga oid 62 turdan (14,6 %) iborat. Ochiq uru ğ lilar (*Pinophyta*) 2 oila va 2 turkumga tegishli bólgan 5 turni birlashtiradi xolos (4.1-jadval).

Sulton Uvaysda florasida etakchi polimorf oilalarning spektri (4.2-jadval) keltirilgan. Turlar tarkibining tahlili bóyicha olingan natijalar ularning tarkibiga *Asteraceae*, *Chenopodiaceae*, *Poaceae*, *Brassicaceae*, *Boraginaceae*, *Fabaceae*, *Apiaceae*, *Caryophyllaceae*, oilalarining kirishini kórsatdi. Statistik analiz qilinganda quyidagilarni keltirish mumkin.



**Sulton Uvaysto ğ florasidagi ósimliklar asosiy sistematik  
guruhlarining ózaro nisbati**

Bólimlar	Soni					
	tur		turkum		oila	
	abs.	%	abs.	%	abs.	%
<i>Pinophyta</i>	5	1,20	2	0,9	2	4,20
<i>Magnoliophyta:</i>	418	98,8	219	99,1	46	95,8
<i>Magnoliopsida</i>	356	84,2	181	82,0	38	79,2
<i>Liliopsida</i>	62	14,6	38	17,1	8	16,6
JAMÍ:	423	100	221	100	48	100

Órtacha har bir oilaga 7 tadan tur tó ğ ri keladi. Ushbu róyxatda keltirilgan etakchi oilalarda 230 tur jamlangan bólib, Sulton Uvaysda florasining 54,3% ni tashkil etdi. 10 ta va undan kóp turga ega bólgan oilalar soni 8 ta, 5 tadan 10 tagacha turga ega bólgan oilalar soni 6 ta, 2 tadan 5 turga ega bólgan oilalar soni 18 ta. 11 ta oila 1 tadan turga ega.

*Chenopodiaceae* oilasi (79 tur yoki 18,8 %) Sulton Uvaysda florasida ikkinchi órinni egallaydi. Oilada etakchi turkumlardan *Salsola* (6 tur), *Anabasis* (7 tur) tashkil etadi. *Chenopodiaceae* oilasi Turon florasida birinchi órinda turadigan oila bólib, bu esa qur ğ oqchil florasining eng asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Golarktika flolaridagi kabi Sulton Uvaysto ğ florasida ham ustunlik qiladigan *Asteraceae* oilasi 34 turkumga mansub bólgan 52 turni (12,2%) egallaydi. Bulardan *Cousinia* 6 tur, *Artemisia* 4 tur, *Lactuca* 4 tur, *Scorzonera* 3 turni egallaydi.

## Sulton Uvaysda florasidagi etakchi oilalar

№	Oilalar	Soni		
		turlar	turkumlar	% hisobida
1.	<i>Chenopodiaceae</i>	79	27	18,8
2.	<i>Asteraceae</i>	52	34	12,2
3.	<i>Brassicaceae</i>	38	27	8,99
4.	<i>Poaceae</i>	39	26	9,22
5.	<i>Boraginaceae</i>	30	11	7,3
6.	<i>Fabaceae</i>	29	11	6,9
7.	<i>Caryophyllaceae</i>	14	6	3,3
8.	<i>Apiaceae</i>	8	7	1,89
10	Qolgan oilalarda	134	72	31,4
JAMI:		423	221	100

*Brassicaceae* oilasi Qadimgi Órtaer dengizining florasiga xos blgan turlardir. *Brassicaceae* oilasi Sulton Uvays florasida (38 tur 8,99%) ham uchinchi rinda turadi (4.2-jadval).

*Poaceae* oilasi Sulton Uvays florasida trtinchi rinni (39 tur yoki 9,22%) egallab, *Poaceae* oilasining boshqa hududlarda ham masalan, Talas Olato ğ, Tiyon-shon, Chotqol qriqxonasi, Nurota qriqxonasi flolarida ham tutgan rni ancha katta da etakchi oilalardan hisoblanadi.

*Boraginaceae* oilasi Sulton Uvays florasida esa 30 turi yoki florada (7,3%) oltinchi rinni egallaydi. Sulton Uvays florasida *Heliopropium* (4 tur), *Lappula* (4 tur), *Arnebia* (3 tur) etakchilik qiladigan turkumlardan hisoblanadi.

*Fabaceae* oilasi Sulton Uvays florasida (29 tur 6,9%). Sulton Uvays florasida chl florasiga xos blgan *Astragalus villosissimus*, *Ammodendron conollyi*, *Halimodendron halodendron* ni keltirish mumkin.

*Apiaceae* oilasi Sulton Uvays florasida kam tarqalgan bólib, 7 tur yoki 1,89% ni egallaydi. Bukanto ğ florasida turlar soni jihatidan etakchi (11 tur yoki 3,1% ) ettinchi órinni egallaydi. Ustyurt florasida (21tur yoki 2,9%).

*Caryophyllaceae* oilasi Sulton Uvays florasida 14 tur bilan (3,3%) etakchi oila hisoblanadi. *Silene* turkumining *Silene tomentella*, *Silene nana* turlari Qizilqumning qoldiq to ğ laridagi kabi Sulton Uvays florasida ham uchraydi.

Sulton Uvays florasida qolgan oilalar 134 tur, 72 turkumni, floraning 31,4% ini tashkil etadi. Sulton Uvays florasining etakchi turkumlari qatoriga *Astragalus*, *Cousinia*, *Salsola*, *Artemisia*, *Strigosella*, *Allium*, *Calligonum*, *Anabasis*, *Gagea*, *Ferula* kabilar kiritildi. Jadvaldagi malumotlardan kórinib turibdiki, flora tarkibidagi eng yirik turkumlar *Astragalus* (15 tur) *Cousinia* (11 tur), *Salsola* (8 tur), *Allium* (6 tur), *Calligonum* (5 tur) turkumlari etakchi órinni egallaydi. 7 ta turkum 5 tadan 8 tagacha turga ega. 2 tadan 5 tagacha turga ega turkumlar soni 63 ta (18,0%) va monotip turkumlar umumiy floraning 126 ta yoki 36,0% ini tashkil etadi.

Astragallarning etakchiligi Turon florasini uchun xos emas, ammo turkumlar spektri chól florasiga xos. Sulton Uvays florasini baholash va uni tóliq bayon etish bu hududning florasini chólga xosligidan dalolat beradi. Shuningdek, ósimliklar róyxati kelajakda Sulton Uvaysto ğ oldi qóimli ósimliklar hisobiga bir nechta turlar bilan kópayishi mumkin.

*Astragalus* va *Cousinia* turkumlarining ustunlik qilishi Sul-ton Uvays florasining old va Órta Osiyodagi boshqa to ğ li hududlarning flolaridagi asosiy xususiyatlari bilan yaqin. Órganilgan hududda *Astragalus* turkumining ayrim sekti-siyalari va ayniqsa, *Cousinia* turkumi arealining sharqiy qismida joylashganligi ularning kóp sonli turlar bilan ishtirok etishini asoslaydi. Masalan, *Cousinia sogdiana*, *Cousinia hamadae*, *Cousinia psammophila* va boshqa turlarni keltirish mumkin.

*Salsola*, *Artemisia*, *Calligonum*, *Anabasis*, turkumlaridagi turlar soni jihatidan kóp bólishi, Órta Osiyoning qur ğ oqchil mintaqalari uchun xarakterlidir. Sul-ton Uvays Qizilqumda joylashgan bólib, Turon provintsiyasining asosiy jihatlarini ózida aks ettiradi.

Xulosa qilib aytaganda, biz órganilgan hudud chól mintaqasida joylashgan bólib, Hozirgi kungacha Qizilqumning qoldiq to ğ lari xususan, Sul-ton Uvays florasida xam to ğ li Órta Osiyo florasiga xos xususiyatlar saqlanganligi kuzatish mumkin. Sul-ton Uvays florasida 48 oila 221 turkumga mansub bólgan 423 turlarning tarqalganligi aniqlandi.

**4.2. Hayotiy shakllari bóyicha tahlili.** Har qanday flora órganilayotganda hududda tarqalgan ósimliklarning biomorfologiyasini órganish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ósimliklarning yashab turgan muhitga mos ravishda har xil biomorfologik moslanishi kelib chiqqan. Ósimliklarning hayotiy shakliga doir bir necha tasniflar mavjud bólib, bular keng tarqalgan K. Raunkier va Í.G. Serebryakov tasniflari hisoblanadi.

Í.G. Serebryakovning tasnifi ósimliklarning eko-morfologik xususiyatlariga asoslangan bólib, bunda olim ósimliklarni quyidagi birliklar kórinishida taqsimlaydi: bólim, sinf, sinfcha, guruh, guruhcha.

K. Raunkier ósimliklarning hayotiy shakllari tasnifi bóyicha ósimliklardagi yangilanish kurtaklarining er yuzasiga nisbatan joylashishi yoki ósimlikni qishning

noqulay sharoitidan, qur'g' oqchilikdan himoyalaniş kurtaklariga qarab 5 ta guruhga ajratish mumkin.

Sulton Uvays florası ósimliklarini biologik spektr bóyicha tahlil qilish uchun S. Raunkier tasniflaridan foydalanildi (4.3-jadval). Ushbu florada terofitlar guruhi etakchilik qiladi.

4.3-jadval

**Sulton Uvays florası tarkibining biologik spektri S. Raunkier**

№	Sistematik guruhlar	Turlar soni					
		Turlarning umumiy miqdori	Nano va mikrofaneroftlar	Xameftlar	Gemikrip-toftlar	Kriptofitlar	Terofitlar
1.	<i>Pinophyta</i>	5	-	-	5	-	-
2.	<i>Magnoliophyta:</i>	418	42	63	109	50	154
2.1	<i>Magnoliopsida</i>	356	42	63	97	-	154
2.2	<i>Liliopsida</i>	62	-	-	12	50	-
Jami:			42	63	114	50	154
Umumiy flora % hisobida			9,9	14,8	26,9	11,8	36,40

Bu guruh bir yillik ósimliklar bólib, ularning er ostki va ustki organlari qishda qurib qoladi, yani tinim davrini faqat uru'g' holatida ótaydi. Ushbu guruh 154 turni (36,40%) óz ichiga oladi. Sulton Uvays florasida *Brassicaceae* (29 tur), *Asteraceae* (27 tur), *Chenopodiaceae* (27 tur), *Poaceae* (20 tur) *Boraginaceae* (19 tur) oilasi vakillarining órni katta. Ushbu guruhda etakchilik qiladigan *Brassicaceae* oilasida *Strigosella* turkumining (6 tur), *Alyssum* (4 tur), *Isatis* (3

tur), *S. africana*, *S. scorpioides*, *A. dasycarpum*, *A. desertorum*, *A. marginatum*, *A. stenostachyum*, *I. violascens*, *I. emarginata*, *I. minima*, *Streptoloma desertorum*, *Descurania sophia*, Kosmopolit areal xos bólgan turlarning tashkil etishini keltirish mumkin.

Bir yillik ót ósimliklar er sharida keng tarqalgan bólib *Asteraceae* oilasida *Cousinia* (5 tur), *Lactuca* (2 tur), *Epilasia* (2 tur) *C. angusticeps*, *C. dichotoma*, *C. eugenii*, *L. glauciifolia*, *L. undulata*, *Epilasia acrolasia*, *Acantholepis orientalis*, *Amberboa bucharica*, *Filago arvensis*, *Hyalea pulchella* va boshqa turlar, *Chenopodiaceae* oilasida *Salsola* turkumining (4 tur), *Atriplex* (2 tur) *S. praecox*, *S. sgdiana*, *Atriplex dimorphostegia*, *A. tatarica*, boshqa turkumlardagi turlar *Ceratocarpus arenarius*, *Londesia eriantha*, *Climacoptera lanata*, *Halimocnemis smirnvii*, *Suaeda arcuata* kuzatiladi. *Poaceae* oilasida *Eremopyrum* (4 tur), *Bromus* (2 tur), *Polypogon* (2 tur), *Eremopyrum buonaepartis*, *E. orientale*, *Bromus oxyodon*, *B. severzoóii*, *Polypogon maritimus*. *Boraginaceae* oilasida *Lappula* (4 tur), *Arnebia* (2 tur), *Rochelia* (2 tur) *Lappula microcarpa*, *Arnebia minima*, *Rochelia cardiosepala* va boshqa turlarida ham kórishimiz mumkin.

Gemikriptofitlar Sul-ton Uvays florasida ikkinchi órinni egalaydi. Ósimlikning er ustki organlari yarim ochiq holda, tinim davrida ósish nuqtasi er yuzasiga yaqin joylashgan kóp yillik ót ósimliklar (109 tur yoki 26,9%) ni tashkil etib, Sul-ton Uvays florasida *Asteraceae* (19 tur), *Poaceae* (10 tur), *Scrophulariaceae* (6 tur), *Apiaceae* (5 tur) oila vakillarini tashkil etadi. Sul-ton Uvays florasida gemikriptofitlar katta órinni egallaydi. *Asteraceae* oilasida *Cousinia* (5 tur), *Echinops* (2 tur), *Taraxacum* (2 tur), *Cousinia hamadae*, *C. mollis*, *C. psammophila*, *Echinops ritro*, *Taraxacum bicornis*, *Acroptilon repens*, *Aster canescens*, *Jurinea psammophila*, *Pulicaria gnaphalodes*, *Tragopogon stepposus* va boshqa turlarni kórishimiz mumkin. *Poaceae* oilasiga *Stipa* (3 tur) Qizilqum qoldiq to ğ larining kamyob turlari bólgan *Stipa aktauensis* ni keltirish mumkin. *S. hohenackeriana*, *Aeluropus litorali*, *Cynodon dactylon*, *Puccinellia distans*, *Poa bulbosa* ushbu turlar Órta Osiyo To ğ li florasida bilan mustahkam bo ğ liqligini

kórsatadi. *Scrophulariaceae* oilasida *Veronica* (2 tur). *Dodartia orientalis*, *Orobanche amoena*, *Verbascum erianthum*, *Veronica anagalloides* ni keltirish mumkin. Sulton Uvaysto ğ ning toshli qiyaliklarida uchraydigan *Apiaceae* oilasidagi *Ferula* turkumining (4 turi) tarqalgan. Ushbu turlar to ğ oldi tekisliklarida keng tarqalgan [21,22,23,24.25].

Xamefitlar – yarimbuta-yarimbutacha (63 tur 14,8 %) Sulton Uvays florasida uchinchi órinni egallaydi. Xamefitlarning er ustki qismi qishda qor bilan qoplanib, novdalari saqlanib qoladi. Yangilanish kurtaklari esa er yuzasidan unchalik baland bólmaydi, ammo tangachalar bilan qoplangan bólad. Sulton Uvaysto ğ da xamefitlardan eng kóp tarqalgan tur vakillarini *Chenopodiaceae* (14 tur), *Convolvulaceae* (6 tur), *Asteraceae* (5 tur) *Scrophulariaceae* (2 tur) oilalarida kórishimiz mumkin. *Chenopodiaceae* oilasi *Anabasis* (4 tur), *Halothamnus* (3 tur) *Krascheninnikovia* (2 tur), *Salsola* (1 tur), *Kochia* (1tur), *Anabasis brachiata*, *A. eriopoda*, *A. salsa*, *A. truncata*, *Halothamnus psammophyllus*, *H. subaphylla*, *Kochia prostrata*, *Nanophyton erinaceum*, *Salsola orientalis* boshqa hududlarning floralarda ham keng tarqalgan turlardan hisoblanadi.

*Convolvulaceae* oilasining *Convolvulus* (5 tur) Sulton Uvays florasining endemi bólgan *Convolvulus afanassievii*, *Convolvulus divaricatus*, *C. hamadae* va boshqalar Sulton Uvaysning to ğ oldi qumlarida keng tarqalgan. *Asteraceae* oilasining *Artemisia* (3 tur) *Artemisia diffusa*, *A. juncea*, *A. terrae-albae* ushbu turlarda kuzatiladi.

Tórtinchi órinda kriptofitlar – yani kóp yillik ót ósimliklar 50 turni yoki Sulton Uvays florasida 11,8% ni tashkil etadi. Bu guruhga kiradigan ósimliklar er ustki organlari qishda butunlay quriydi. Yangilanuvchi kurtaklari esa er osti organlari – tugunaklar, piyozboshlar va ildizpoyalarda saqlanib qoladi.

Bu guruhni *Liliaceae* (7 tur), *Alliaceae* (6 tur), *Iridaceae* (4 tur) *Asteraceae* (3 tur) oilalari vakillari tashkil qiladi. *Liliaceae* oilasida *Gagea* turkumida (5 tur) *G. bergii*, *G. divaricata*, *G. ova*, *Tulipa sogdiana*, *Rhinopetatum karelinii*. *Alliaceae* oilasida *Allium* turkumining (6 tur) *A. borszczowii*, *A. caspium*, *A. filidens* va boshqa turlari *Iridaceae* oilasining *Iris* turkumida (4 tur) bólib, *I. falcifolia*, *I. loczyi*, *I. songarica*, *I. tenuifolia* *Asteraceae* oilasida *Scorzonera* turkumining (3 tur) *S. bungei*, *S. gageoides*. Sul-tonUvays florasida mayda sha ğ al toshli tuproqlarda tarqalgan.

Nano va mikrofanerofitlar yoki butalar bólib, qishda ularning novdalari saqlanib qoladi va sovuqdan nobud bólmaydi. Sul-tonUvays florasining 9,9% ni (42 tur) tashkil etib, Sul-ton Uvays florasida bu guruhga kiradigan oilalardan *Fabaceae* (7 tur), *Polygonaceae* (6 tur), *Chenopodiaceae* (6 tur), *Ephedraceae* (4 tur), *Tamaricaceae* (4 tur), *Convolvulaceae*, *Rhamnaceae* oilalarining órni yuqoridir. *Fabaceae* oilasiga kiradigan *Ammodendron conollyi*, *Ammothamnus lehmanni*, *Astragalus scleroxylon*, *A. villosissimus*, *Halimodendron halodendron*, *Smirnovia turkestana* va boshqa turlar. *Polygonaceae* oilasining *Calligonum* (5 tur) *Atraphaxis spinosa*, *Calligonum eriopodum*, *C. junceum*, *C. macrocarpum* va boshqa turlari *Chenopodiaceae* oilaida *Haloxylon* (2 tur), *Salsola* (2 tur), *H. aphyllum*, *H. persicum*, *Salsola arbuscula*, *S. arbusculiformis*, *Halocnemum strobilaceum* ushbu turlar esa bevosita chól floralarining belgisi hisoblanadi. *Ephedraceae* oilasi *Ephedra* (4 tur) *E. equisetine*, *E. intermedia*. *Tamaricaceae* oilasida *Tamarix* turkumining (4 tur) bólardan *T. elongata*, *T. hispida*, *T. ramosissima*. *Rhamnaceae* oilasida *Convolvulaceae* oilasining *Convolvulus fruticosus* va boshqa turlarida kóramiz.

Shuningdek, Sul-ton Uvays florasida bir yillik ósimlik va efemerlar mavjud bólib, bir jihatdan ular Sahroy-gobilik chóli uchun mos, boshqa tomondan bunga óxshash holat barcha Qizilqum florasida kuchli antropogenezatsiyasining óziga xos xarakterli kórsatkichlari bólib hisoblanadi.



**4.3. Ekologik tahlili.** Qizilqum tuproqlari fiz-kimyoviy xususiyatlarining ózgaruvchanligi unda tuproqning turli ekologik sharoitlariga moslashgan ósimliklarning ham xilma-xil bólishiga óz tasirini kórsatgan. Tadqiqotchilar Qizilqumning ósimliklar qoplamida ósadigan ósimliklarni bir nechta ekologik guruhlarga ajratgan. R.D. Melnikova Qizilqumning qumli tuproqlarida tarqalgan *Psammophyta*, N.Í. Akjigitova esa shórlangan tuproqlarida uchraydigan *Halophyta*, Í.F. Momotov *Gypsophyta*, Z.A. Maylun esa tóqayni *Potamophyta* ósimlik guruhlari haqida batafsil malumotlarni keltirib ótganlar.

N.Í. Akjigitova ósimliklar qoplamida ósadigan turlarning bir nechta ekologik guruhlarga – petrofit, psammopetrofit, evpetrofit, galofit-petrofitlarga ajratgan. Tadqiqotlar davomida Sulton Uvays hududida tarqalgan ósimliklarni ekologik guruhlarga ajratishda N.Í. Akjigitova, R.D. Melnikova , Í.F. Momotov, Z.A. Maylun, L.N. Kapustina ilmiy ishlaridan foydalanildi [4,7].

Ósimliklarning ekologik guruhlar bóyicha tahlili natijasi (4.4 -jadval) keltirildi.

4.4-jadval

#### Sulton Uvays ósimliklarining ekologik tahlili

№	Guruhlar	Turlar soni	Umumiy floraga nisbatan % hisobida
1	Psammofitlar	204	48,2
2	Gipsofitlar	120	28,3
3	Galofitlar	51	12,0
4	Petrofitlar	25	5,9
5	Tóqay ósimliklari	23	5,4

Sulton Uvays florasida psammofit guruhlar 204 turni yoki qoldiq to'g' florasining 48,2% ini tashkil etishi aniqlandi. Bu guruh qumli tuproqlarda ósishga moslashgan hamda Sulton Uvaysning to'g' oldi qumlarida tarqalgan. Sulton Uvays

florasidagi psammofit ósimliklarni oilalar bóyicha tahlil qilganimizda *Asteraceae* (39 tur), *Chenopodiaceae* (29), *Brassicaceae* (21), *Poaceae* (16), *Fabaceae* (13) egallashi kuzatildi.

Bu oilalardagi vakillardan *Artemisia leucodes*, *Cousinia hamadae*, *Arnebia decumbens*, *Scorzonera gageoides*, *Strigosella africana*, *Londesia eriantha*, *Haloxylon persicum*, *Carex physodes* turlarini keltirish mumkin. Tadqiqot hududining endem ósimliklari bólgan *Cousinia umbilicata*, *Gagea deserticola* keltirish mumkin. Ushbu guruhdagi ósimliklarni tarqalish areali bóyicha tahlili natijasida Turon tipiga (43 tur), Órta Osiyo (12), Eron-Turon (9), Eron-Órta Osiyo (13) Qizilqum (7) tiplariga xosligi ularni Qizilqumning tipik psammofit ósimliklari ekanligini izohlaydi.

Ikkinchi órinni gipsoffit guruhi (120 tur, 28,3% ) egallaydi. Ushbu guruhda *Asteraceae* (22), *Brassicaceae* (11), *Poaceae* (11), *Chenopodiaceae* (7) vakillari Sulton Uvaysto ğ ning to ğ oldi taqir tuproqlarida tarqalgan. Sulton Uvaysto ğ da bu oilaga mansub turlardan *Artemisia diffusa*, *Leptaleum filifolium*, *Anabasis annua*, *Leontice incerta*, *Chamaesyce turcomanica* va boshqalarni uchratish mumkin va ulardan Turon tipiga xos (14 tur), Turon-Qashqar (6), Órta Osiyo (6), Eron-Turon (4), Kavkaz-Turon (3) turlari hisoblanadi.

Uchinchi etakchi guruh galofitlarga xos bólib (51 tur 12,0%), ushbu guruhda asosan *Chenopodiaceae* oila vakillarining órni yuqoridir (22). Sóngra *Poaceae* (13) va *Asteraceae* (8) vakillarining galofit guruhlarini kóp uchrab (*Litóinoóia tenuissima*, *Anabasis brachiata*, *Halimocnemis pilifera*, *Halogeton glomeratus*, *Aeluropus litoralis*, *Phragmites australis*), ushbu oilalar vakillari tuproq tarkibida tuz miqdori ortishi natijasida Qizilqumning shór tuproqlarida ósishga moslashganligini kórsatadi. Bu guruhdagi ósimliklarning tarqalish areallari Turon-Qashqar tipiga xos bólgan (10 tur), Turon (7), Plyuriregional (6) Eron-Turon (2) tiplaridagi ósimliklarda kuzatish mumkin.

